

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
MAGISTRATURA VA SIRTQI TA'LIM FAKULTETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**“DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

**МЕМЛЕКЕТТИК ТІЛДЕ ЗАҢ ШЫҒАРУ:
МӘСЕЛЕЛЕРІ МЕН ШЕШУ ЖОЛДАРЫ**

**ЗАКОНОТВОРЧЕСТВО НА
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЯЗЫКЕ:
ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ**

**LAWMAKING IN THE STATE
LANGUAGE: PROBLEMS AND
SOLUTIONS”**

II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
to'plami



Toshkent - 2022

UO'K: 808.5; 82.01

TASHKILY QO'MITA:

G. Gulyamova – TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori v.b.
D. Rasulmuhamedova – TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti
N. Niyazova – TDYU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

N. Ramazonov, Sh. Ko'chimov, G. Gulyamova, D. Hoshimova,
Sh. Ziyamuhamedova, N. Niyazova, N. Bozorova, R. Matenov,
A. Fattaxova, D. Rasulmuhamedova (mas'ul kotib)

“Davlat tilida qonun ijodkorligi: muammo va yechimlar / Мемлекеттік тілде заң шығару: мәселелері мен шешу жолдары / Законотворчество на государственном языке: проблемы и решения / Lawmaking in the state language: problems and solutions” II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami.
– Toshkent: TDYU, 2022. – 184 b.

Ushbu to'plamdan Toshkent davlat yuridik universitetida “Davlat tilida qonun ijodkorligi: muammo va yechimlar / Мемлекеттік тілде заң шығару: мәселелері мен шешу жолдары / Законотворчество на государственном языке: проблемы и решения / Lawmaking in the state language: problems and solutions” mavzusida o'tkazilgan II xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari o'rin olgan. Konferensiya 2022-yil 25-oktabrda Zoom platformasi orqali bo'lib o'tdi.

Hamkorlar: M.Avezov nomidagi Janubiy Qozog'iston universiteti, O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

MUNDARIJA

Шухрат Кўчимов

Давлат тилида қонун ижодкорлиги фаолиятини янада
такмиллаштиришнинг долзарб масалалари 6

Хушвақт Ҳайитов

Норма ижодкорлигида норматив-ҳуқуқий атамаларни
қўллашнинг назарий-ҳуқуқий масалалари 14

Gulnora Gulyamova

Qonun tilida maxsus leksika 18

Атабек Бабаджанов

К вопросу влияния изучения языка и художественной
литературы на формирование правового сознания
и правовой культуры юристов 31

Qodirjon Mo'ydinov

Qonun va normativ aktlar tili: muammolarga bir nazar 35

Ярмухаммат Мадалиев

Турк хоқонликлари даври ҳужжатчилиги 42

Nodir Ramazonov

Esse janri haqida mulohazalar 46

С. М. Ражабова

Современные перспективы юридического языка 51

Дилдора Хашимова

Значение электронной литературы в формировании
речевых навыков и умений студентов-юристов 58

Л. К. Турабаева

Инновациялық білім берудегі шығармашылық жұмыс түрлері67

Х. Х. Таджиев

Қазақ даласында ислами әдебиеттің қалыптасуында
ежелгі әдеби мұралардың орны мен маңызы 72

**DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**

Ж. Қ. Әділбекова, Г. К. Бескемпірова Шәкәрім Құдайбердіұлы тіліндегі күрделі метафоралық колданыстар	80
Л. К. Турабаева Ресми іскерлік қарым-қатынас және сөйлеу мәдениеті	92
Н. А. Жарасбаев Сот ісіндегі сөйлеу мәдениеті	98
У. А. Байкабилов Соттағы шешендік	103
Firuz Safarov O‘zbek adabiy tilida tejamkorlik va qonun tili	109
S. I. Mahmudova Til tarixi – el tarixi	113
Davron Eshmurodov, Sukhrob Tuychiyev The classification of word categories in uzbek language	118
Azizjon Xo‘janazarov Qonunchilikda davlat tili qoidalaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanish masalalari	124
Shahnoza Ziyamuxamedova “100 o‘zbek tilshunosi” dasturiy ilovasi amalda	127
X. X. Таджиев, Б. Т. Тасполатов Науаи шығармашылығында «әрбәғин» дәстүрінің көрінісі	131
Durdona Rasulmuhamedova Talaba nutqi mezonlari	138
Насиба Ниязова Роль страноведческих текстов в обучении языкам студентов-юристов	141
Yo‘ldosh Rahmatov, Nasiba Bozorova O‘zbek xalq maqollarining genezisi va shakllanish omillari	150



Firuz Safarov,
Buxoro davlat universiteti o'zbek
tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida doktoranti

O'ZBEK ADABIY TILIDA TEJAMKORLIK VA QONUN TILI

O'zbek adabiy tili qurilishining bosh xususiyati tejamkorlik bo'lib bu atama so'z birikmasi, gap, matnda so'z va qo'shimchani tejab ishlatishni anglatadi [1, 42 – 57; 2, 62 – 65]. Masalan, o'nta ktob, bir talay kitob, kitob ko'p deganda qo'shimcha (-lar) tejaladi, kitobim, kitobing deganda mustaqil so'z (mening, sening), kelsam deganda mustaqil va yordamchi so'z (agar, men) tejaladi. Biroq hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida tejamkorlikka to'la rioya qilinmayapti. Dalillarga murojaat qilamiz.

Uyushiq bo'lakda ta'kid nazarda tutilmaganda ko'plik va kelishik qo'shimchasi oxirgi so'zga qo'shilib qolganida tejaladi. Biroq qonun hujjatidan olingan quyidagi misollarda tejamkorlikka rioya qilinmagan. Quyidagi jumlada -lar qo'shimchasi uyushiq bo'lakda 5 marta, -dan qo'shimchasi 1 marta ortiqcha qo'llan-gan: Mablag'lari soliqlar, majburiy to'lovlar va jarimalar, homiylik mablag'lari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan belgilangan boshqa daromadlardan, shuningdek budjet transfertlari va subsidiyalaridan shakllantiriladigan davlat maqsadli jamg'armalari davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun tashkil etiladi (O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, I bo'lim, 6-bob, 36-modda). Hududiy tasnif budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning tegishli ma'muriy-hududiy birlikka mansubligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi (O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, I bo'lim, 3-bob, 22-modda). Bu jumlada uyushiq qaratqich aniqlovchining birinchisida qaratqich kelishigi qo'shimchasi



ortiqcha qo'llangan. Ushbu Kodeks O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to'g'risidagi qonunchilikni buzish hollarining oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 1-bob, 1-modda). Bu jumlada ta'kid nazarda tutilmaganidan uyushiq bo'lakdagi -lar va -ni ortiqcha qo'llangan. Quyidagi misolda uyushiq bo'lakdagi chiqish kelishi qo'shimchasi ortiqcha qo'llangan: Bojxona to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeksdan va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iborat (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 1-bob, 2-modda). Mana bu misolda esa tejamkorlikka rioya qilinib chiqish kelishigi qo'shimchasi tejalgan: Budjet to'g'risidagi qonunchilik ushbu Kodeks va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir (O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi, I bo'lim, 1-bob, 2-modda). Faqat bu misolda kesimdagi -dir qo'shimchasi ortiqcha.

Quyidagi jumlada agar yordamchi so'zi ortiqcha qo'llangan. Bundan tashqari shart ergash gapning tartibi ham noto'g'ri: Bojxona to'g'risidagi qonunchilik, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 1-bob, 2-modda). Bu jumlaning quyidagicha tahriri bo'ladi: Hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa bojxona to'g'risidagi qonunchilik rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi. -sa qo'shimchasi bog'lovchi vazifasini ham bajaradi shuning uchun vergulni ham tejash lozim. Quyidagi misolda ham agar so'zi, -lar qo'shimchasi ortiqcha qo'llangan va shart ergash gapning tartibi buzilgan: O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalari va erkin omborlar bo'lishi mumkin, ularning hududlari, agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan

DAVLAT TILIDA QONUN IJODKORLIGI: MUAMMO VA YECHIMLAR

bo'lsa, bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 2-bob, 5-modda). Bu jumlaning quyidagicha ifodalash mumkin: O'zbekiston Respublikasi hududida erkin bojxona zonalarida va erkin omborlar bo'lishi mumkin, qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa ularning hududi bojxona hududidan tashqarida joylashgan deb qaraladi. Quyidagi misolda agar yuklamasi, -lar va -ni qo'shim-chasi ortiqcha qo'llangan: Agar tovarlarni va (yoki) transport vositalarini olib o'tayotgan shaxs ko'rsatilgan xabardor qilishni amalga oshirmaydigan bo'lsa bunday majburiyat tashuvchining zimmasiga yuklatiladi (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 3-bob, 17-modda).

Qonun hujjatlarida harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalash uchun ko'pincha -gan holda shakli qo'llanadi. Tejamkorlik nuqtayi nazaridan uning o'rniga -(i)b shaklidan foydalanish maqsadga muvofiq: Budget ssudasini berish rad etilgan taqdirda tegishli moliya organi bir ish kuni ichida budget ssudasi berish rad etilganligi to'g'risida aniq sabablar va asoslarni ko'rsatgan holda (ko'rsatib) arizachiga xabar qiladi (O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi, I bo'lim, 20-bob, 140-modda). tabiiy eskirishi hisobga olingan holda (hisobga olinib) tovar o'zgarma holatda turgan bo'lsa, bundan nuqsonlar aniqlangan hollar mustasno (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 10-bob, 59-modda). olib kirilgan tovardan foydalangan holda (foydalanib) boshqa tovar tayyorlash, shu jumladan montaj qilish, yig'ish yoki qismlarga ajratish (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 11-bob, 71-modda). Sud majlisining bayonnomasi audio- va videoyozuv vositalaridan foydalangan holda (foydalanib) to'xtovsiz yozib boriladi (O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protessual kodeksi, I bo'lim, 25-bob, 277-modda).

O'zbek adabiy tilida ega ko'plik shaklida bo'lsa ta'kid nazarda tutilmaganda kesimga -lar qo'shilmaydi. Quyidagi jummalarda



ana shu qoidaga rioya qilinmagan: Fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqildirlar va faqat qonunga bo'ysunadilar (O'zbekiston Respub-likasining Fuqarolik protessual kodeksi, I bo'lim, 1-bob, 9-modda). Bu jumlada va bog'lovchisi ham ortiqcha qo'llangan. Jumla tejamkorlik asosida tuzilsa quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: Fuqarolik ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirishda sudyalar mustaqil bo'lib faqat qonunga bo'ysunadi. /Taraflar protsessual huquqlardan teng foydalanadilar va teng majburiyatlarga ega bo'ladilar (O'zbekiston Respub-likasining Fuqarolik protessual kodeksi, I bo'lim, 6-bob, 44-modda). Olingan natijalarga baho berish va ushbu xulosani (xulosalarni) shakllantirish uchun vakolatli bo'lgan ekspertlar umumiy xulosa (xulosalar) beradilar (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 30-bob, 217-modda). Mazkur talabga rioya etilmagan taqdirda bojxona organlari ushbu transport vositalarini majburiy to'xtatib qo'yadilar (O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi, I bo'lim, 3-bob, 20-modda).

Xulosa qilib aytganda hozirgi kunda O'zbekiston Respub-likasining qonun hujjatlarida tejamkorlikka to'la rioya qilinmay so'z va qo'shimcha ortiqcha qo'llan-yapti. Binobarin qonun hujjatlarini tejamkorlik nuqtayi nazaridan tahrir qilish lozim. Bu qonun hujjatlari tilining ixcham, sof, ravon va aniq bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Зикриллаев Ф. Истиқлол ва адабий тил. Тошкент: Фан, 2004.
2. Зикриллаев Ф. Руҳ ва тил. Тошкент: Фан, 2018.